ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBİ VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekturodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	



XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ochilova Xusniya Olim qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Magistratura va kechki ta'lim fakulteti magistranti

Ilmiy rahbar:

Yuldasheva Umida Asanaliyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Xalqaro moliya kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori,

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro moliya bozorida kredit riskini baholashning zamonaviy yondashuvlari, raqamli texnologiyalar rivojining ta'siri hamda global moliyaviy integratsiya sharoitida risklarni boshqarish tizimi evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kredit riskini aniqlash, o'lchash va kamaytirishda qo'llanilayotgan ilg'or amaliyotlar – takomillashgan kredit skoring modellar, bank tizimidagi stress-testlash jarayonlari, shuningdek, kutilayotgan zarar (Expected Loss – EL) va kutilmagan zarar (Unexpected Loss – UL) metrikalarining ustunliklari yoritiladi. Shuningdek, maqolada sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish va "Big Data" texnologiyalarining kredit riskini boshqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Ushbu texnologiyalar asosida kredit portfellarining xavf darajasini baholash, yuqori xavfli qarz oluvchilarni erta aniqlash hamda qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kredit riski, xalqaro moliya bozori, risklarni boshqarish, kredit skoring, PD, LGD, EAD, Basel III, stress-test, Monte-Karlo simulyatsiyasi, sun'iy intellekt, Big Data, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik, raqamli moliya.

Abstract. This article examines modern approaches to credit risk assessment in the international financial market, the impact of digital technology development, and the evolution of risk management systems under conditions of global financial integration. The study highlights advanced practices in identifying, measuring, and mitigating credit risk, including enhanced credit scoring models, stress-testing procedures in the banking system, and the advantages of expected loss (EL) and unexpected loss (UL) metrics. Special emphasis is placed on the role of artificial intelligence, machine learning, and Big Data technologies in improving the effectiveness of credit risk management. The paper analyzes opportunities for assessing credit portfolio risk levels, early identification of high-risk borrowers, and optimization of decision-making processes.

Key words: credit risk, international financial market, risk management, credit scoring, PD, LGD, EAD, Basel III, stress testing, Monte Carlo simulation, artificial intelligence, Big Data, credit portfolio, financial stability, digital finance.

Аннотация. В статье анализируются современные подходы к оценке кредитного риска на международном финансовом рынке, влияние развития цифровых технологий, а также эволюция систем управления рисками в условиях глобальной финансовой интеграции. В исследовании раскрываются передовые практики идентификации, измерения и снижения кредитного риска, включая усовершенствованные модели кредитного скоринга, процедуры стресс-тестирования в банковской системе, а также преимущества использования показателей ожидаемых потерь (Expected Loss – EL) и неожиданных потерь (Unexpected Loss – UL). Особое внимание уделяется роли искусственного интеллекта, машинного обучения и технологий Big Data в повышении эффективности управления кредитными рисками. Анализируются возможности оценки риск-профиля кредитных портфелей, раннего выявления заемщиков с высоким уровнем риска и оптимизации процессов принятия управленческих решений.

Ключевые слова: кредитный риск, международный финансовый рынок, управление рисками, кредитный скоринг, PD, LGD, EAD, Basel III, стресс-тестирование, моделирование Монте-Карло, искусственный интеллект, Big Data, кредитный портфель, финансовая устойчивость, цифровые финансы.



KIRISH

Kredit riski bugungi global moliya tizimining barqarorligi va uzluksiz faoliyat yuritishi uchun hal qiluvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Jahon moliya bozorlarining yanada chuqurlashgan integratsiyasi, transchegaraviy kapital harakatlarining sezilarli darajada kengayishi, shuningdek, derivativlar, strukturalashgan moliyaviy instrumentlar va raqamli aktivlar kabi yangi moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi risklarning turli segmentlar o'rtasidagi uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirmoqda. Natijada kredit riskining shakllanish mexanizmlari murakkablashib, uni aniqlash, baholash va bashorat qilish jarayonlari avvalgidan ko'ra kengroq analitik yondashuvlarni talab etmoqda.

Global iqtisodiy jarayonlarning o'zgaruvchanligi, geosiyosiy beqarorlik, foiz stavkalari dinamikasi hamda moliyaviy bozorlardagi volatillik kredit portfellariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tashqi omillar sirasiga kiradi. Shu nuqtai nazardan, kredit riskini samarali boshqarish nafaqat alohida banklar va moliyaviy institutlar, balki butun xalqaro moliyaviy tizim barqarorligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda kredit riskini baholashning an'anaviy yondashuvlari – moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan tahlil, qo'lda amalga oshiriladigan ekspert baholash tizimlari yoki klassik risk-metrik modellar – kompleks risk muhitini to'liq qamrab ololmaydi. Shu bois banklar va moliyaviy institutlar zamonaviy skoring modellarini, mashinaviy o'qitish asosidagi algoritmlarni, kutilayotgan zarar (EL) va kutilmagan zarar (UL) konsepsiyalarini, shuningdek, ko'p stsenariyli stress-testlash mexanizmlarini qo'llash orqali baholash jarayonini yanada takomillashtirib bormoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonining jadallashuvi kredit riskini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt, "Big Data", real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari hamda alternativ ma'lumotlar manbalari (masalan, tranzaksiya faolligi, raqamli izlar, iste'molchilar xatti-harakati haqidagi ma'lumotlar) kreditga layoqatlilikni aniqlashda yanada aniq va moslashuvchan yondashuvlarni qo'llash imkonini bermoqda.

Shu sababli kredit riskini baholashning zamonaviy mexanizmlarini ilmiy-nazariy asosda takomillashtirish, ularni innovatsion texnologiyalar asosida optimallashtirish hamda xalqaro amaliyot talablariga moslashtirish hozirgi davrda moliyaviy boshqaruvning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor D. Duffiening ilmiy tadqiqotlarida kredit riskini baholashda bozorga asoslangan va intensivlik (intensity) yondashuvlari muhim deb hisoblanadi. U ilg'or affayn jarayonlarga asoslangan modellar orqali kredit spreadlari va CDS bozorlaridan olingan ma'lumotlardan riskni kvantifikatsiyalashda foydalanishni taklif qiladi; bu banklar uchun xatarni real vaqt rejimida kuzatish va stress-testlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Duffie, shuningdek, likvidlik va bozor strukturasining bank xavfsizligiga ta'sirini tahlil qilib, tizimli xavfni hisobga oluvchi modellarga urg'u beradi [1]. Uning yondashuvi tartibga solish (Basel) talablarini bozor ma'lumotlari bilan integratsiyalashni rag'batlantiradi.

Xorijiy olim D. Landoning ilmiy qarashlarida kredit riskining statistik va strukturaviy yondashuvlari o'rtasidagi farq hamda ularni birgalikda qo'llash muhimligi ta'kidlanadi. Lando PD (probability of default), LGD va EAD kabi parametrlarni baholashda intensivlik (hazard rate) modellari va reyting o'tishlariga (rating transitions) asoslangan usullarni muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi; bu esa kredit portfellarining vaqt bo'yicha dinamik xatarini tushunishda samarali hisoblanadi. U model parametrlarini baholash va empirik verifikatsiyaga katta e'tibor qaratib, modellashtirishdagi noaniqliklarni hisobga olishni tavsiya etadi [2]. Landoning ishlarida Monte-Karlo simulyatsiyasi va bog'liq defolt (dependent default) modellari kredit portfelini stress-test qilishda keng qo'llaniladi.

Professor R.C. Mertonning ilmiy izlanishlarida strukturaviy modellar, xususan, Merton modeli korporativ qarz bo'yicha defolt ehtimolini kapital tuzilmasi va aktivlar qiymatining o'zgaruvchanligi orqali baholashning nazariy asosini yaratadi. U kompaniya kapitalini opsion sifatida talqin qilib, bozorga asoslangan ko'rsatkichlardan foydalanish orqali kredit riskini kvantifikatsiyalash mumkinligini amaliy jihatdan isbotladi; bu banklar va reyting agentliklari uchun qo'shimcha axborot signallarini taqdim etadi. Mertonning yondashuvi kredit spreadlari, qaytarilish darajasi (recovery rate) va bozor likvidligi omillarini integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi, shuningdek, modelning cheklovlari va asosiy taxminlariga e'tibor qaratadi [3]. Ushbu konseptual asos Basel me'yorlariga mos ravishda bozor va ichki modellarni joriy etishda muhim ta'sir ko'rsatgan.

Yana bir xorijiy olim R. Contning ilmiy qarashlarida kredit va tizimli risklarni baholashda tarmoq (network) tuzilmalari, likvidlik va solvensiya integratsiyasi hamda stoxastik jarayonlarga asoslangan modellashtirish markaziy o'rin tutadi. Cont banklararo bog'liqlik va moliyaviy yuqum (contagion) mexanizmlarining tarqalishini matematik jihatdan tahlil qilib, stress-testlarda solvensiya va likvidlik jihatlarini birgalikda ko'rib chiqishni taklif etadi. Uning ishlari raqamli texnologiyalar va katta ma'lumotlar yordamida tizim darajasida monitoring va erta



ogohlantirish (early-warning) signallarini rivojlantirish imkoniyatlarini ham yoritadi [4]. Cont, shuningdek, Monte-Karlo va agentga asoslangan simulyatsiyalarni tizimli xavfni baholashda samarali vosita sifatida e'tirof etadi.

Mahalliy olimlardan PhD M.L. Iskandarovning ilmiy maqolasida tijorat banklarida kredit riskini baholash va boshqarishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. U Basel III talablari, stress-testlash amaliyoti, kredit scoring tizimlari, shuningdek sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini muhokama qiladi. Iskandarov tadqiqotida kredit risklarining banklarning moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga bevosita ta'siri asoslab berilib, ularni samarali boshqarish strategik ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi [5]. Shuningdek, kredit riskini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun amaliy yechimlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Professor Z.T. Mamadiyarovning ilmiy maqolasida tijorat banklarida kredit riskini baholashda PD, LGD va EAD kabi parametrlarning statistik bahosi bankning umumiy risk profilini aniqlashda markaziy rol o'ynashi qayd etiladi. U kredit riskini boshqarish tizimini shakllantirishda stress-test metodlarini amaliyotga joriy etish, ichki reyting modellaridan hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni zarur deb hisoblaydi. Shuningdek, banklar kredit portfeli barqarorligini ta'minlash uchun kredit riskini monitoring qilishni real vaqt rejimiga o'tkazish, makroiqtisodiy omillarni tahlil qilish va kredit siyosati strategiyalarini integratsiyalash muhim ekanini ta'kidlaydi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada kredit riskini baholashning nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va O'zbekiston bank tizimi sharoitida qo'llanilish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot metodologiyasi zamonaviy ilmiy yondashuvlar, tizimli tahlil usullari va empirik ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning ushbu bosqichida Asaka bank kredit portfelining hajmi, tarkibi va sifat ko'rsatkichlari chuqur iqtisodiy-statistik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar kredit portfelidagi o'zgarishlar nafaqat bank kredit siyosatining samaradorligini, balki umumiy makroiqtisodiy muhit barqarorligini ham aks ettirishini ko'rsatdi.

Asaka bank kredit portfeli so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, portfelning umumiy hajmi yilma-yil o'rtacha 12-15 foiz atrofida kengayib borgan. Kredit qo'yilmalari tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bankning kreditlash strategiyasi asosan korporativ segmentga yo'naltirilgan bo'lib, umumiy portfelning 70-75 foizi yuridik shaxslarga berilgan kreditlardan iborat. Buning asosiy sababi bankning tarixan yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgani, shuningdek, iqtisodiyotning sanoat, transport va energetika kabi strategik sohalarini kreditlash orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati bilan uzviy bog'liqligidir.

Korporativ kredit portfeli tarkibida quyidagi kredit turlari ustunlik qiladi:

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar;
- eksport-import operatsiyalarini qo'llab-quvvatlovchi kreditlar;
- korxonalar aylanma mablag'larini to'ldirishga mo'ljallangan qisqa va o'rta muddatli kreditlar.

Mazkur kreditlarning iqtisodiyot rivoji uchun ijobiy ta'siriga qaramay, ularning yuqori ulushi kredit riskining konsentratsiyasini kuchaytirishi mumkin. Xalqaro reyting agentliklari (Moody's, Fitch) ham O'zbekiston bank tizimi uchun kreditlarning yirik korporativ mijozlar hissasida jamlanishini asosiy zaif jihatlardan biri sifatida qayd etib kelmoqda.

Kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi o'rtacha darajada bo'lib, ayrim yillarda sanoat va qurilish sektorlarining ulushi 40 foizdan oshgan. Ushbu sohalarining yuqori kapital sig'imiga ega ekani va iqtisodiy sikllarga sezgirligi kredit riskining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, xizmat ko'rsatish sohasi hamda iste'mol kreditlari ulushining pastligi portfelning umumiy diversifikatsiya darajasini cheklab qo'ymoqda.

Tahlil natijalari kredit portfelining miqdoriy o'sishi doimo sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bilan uyg'un kechmasligini ko'rsatdi. Kredit portfelining yillik o'sish sur'atlari bilan muddati o'tgan kreditlar (NPL) dinamikasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, kredit hajmining jadal kengayishi kredit sifati pasayish xavfini kuchaytiradi. Ushbu holat 2020-2023 yillar oralig'ida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lgan.

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, kredit portfelining jadal kengayishi quyidagi risklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin:

- qarzdorlarning moliyaviy holatini baholash jarayonida yuqori sifatli ekspertizaga bo'lgan ehtiyojning keskin ortishi;
- kreditlash sur'atlari tezlashganda kredit riskining dastlabki bosqichlarda aniqlanmay qolish ehtimolining oshishi;



■ yirik kreditlarning ayrim sektorlar yoki alohida korxonalarda jamlanishi natijasida risk konsentratsiyasining kuchayishi.

Shu jihatdan, Asaka bank kredit portfeli bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar kredit siyosatining strategik jihatdan to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishiga qaramay, uning risk-sezgirlikni oshirish, diversifikatsiya darajasini yaxshilash hamda monitoring mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval. Asaka bankning kredit portfeli ko'rsatkichlari va ularning MDH va rivojlangan bozorlar bilan solishtirilishi¹

Ko'rsatkich	Asaka bank (O'zbekiston)	MDH o'rtacha	Rivojlangan bozorlar (EU/USA)	Izoh
Korporativ kreditlar ulushi (%)	72	65-80	50-60	Asaka bank portfeli korporativga yo'naltirilgan
Iste'mol kreditlari ulushi (%)	18	10-25	30-40	Rivojlangan bozorlarda iste'mol segmenti yuqori diversifikatsiya beradi
Investitsion loyihalar ulushi (%)	40	35-50	25-30	Asaka bankda strategik loyihalar katta ulushni tashkil qiladi
NPL darajasi (%)	5,0	5-8	1-3	Asaka bank MDH o'rtacha ko'rsatkichlariga mos, rivojlangan bozorlar bilan solishtirganda yuqori
Diversifikatsiya indeksi*	0,65	0,6-0,7	0,8-0,85	Bankning portfel diversifikatsiyasi xalqaro standartga nisbatan past

*Diversifikatsiya indeksi – portfel tarkibidagi kredit turlarining nisbiy balansini ifodalaydi (1 ga yaqin bo'lsa diversifikatsiya yuqori).


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, Asaka bank kredit portfeli asosan korporativ mijozlarga yo'naltirilgan bo'lib, yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish va strategik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Mazkur holat milliy iqtisodiyotning rivojlanish siyosati bilan uyg'un bo'lsa-da, xalqaro tajriba bilan solishtirilganda portfel diversifikatsiyasi yetarli darajada emas. Rivojlangan moliya bozorlarida banklar korporativ va iste'mol kreditlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali portfel riskini kamaytirishga erishayotgan bo'lsa, Asaka bankda iste'mol kreditlari ulushining pastligi portfelning konsentratsiya riskini oshirmoqda. Shu jihatdan, kredit portfeli diversifikatsiyasini kengaytirish milliy bank tizimi barqarorligini mustahkamlash uchun zaruriy choradir.

Empirik natijalar Asaka bankda muddati o'tgan kreditlar (NPL) darajasi 4,5-5,2 foiz oralig'ida tebranishini ko'rsatdi. Ushbu ko'rsatkich MDH mamlakatlari o'rtacha darajasiga mos bo'lsa-da, rivojlangan moliya bozorlariga nisbatan yuqoriroq hisoblanadi. NPL dinamikasining makroiqtisodiy omillarga sezgirlikni aniqlanib, inflyatsiya darajasi oshgan, foiz stavkalari ko'tarilgan va korxonalar rentabelligi pasaygan davrlarda problemali kreditlar ulushi ortgani kuzatildi. Bu holat kredit riskini boshqarishda kredit portfelining iqtisodiy sikllarga moslashuvchanligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Logit va probit regressiya modellari natijalari kredit riskining asosiy determinantlari sifatida qarzdorning moliyaviy barqarorligi, likvidlik ko'rsatkichlari, qarz yuklamasi darajasi, garov ta'minoti sifati hamda kredit tarixini aniqladi. Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlar bilan uyg'un bo'lib, PD-LGD-EAD tizimi asosida kredit riskini prognozlash imkonini beradi. Bankning mavjud ichki monitoring tizimi bilan solishtirilganda, avtomatlashtirilgan risk tahlili mexanizmlarining samaradorligini oshirish zarurati yaqqol namoyon bo'ladi.

Asaka bankning kredit riskini boshqarish tizimi qisman Basel III talablariga mos keladi: riskka sezgir aktivlar qiymati hisoblanadi, kapital yetariligi doimiy monitoring qilinadi hamda stress-testlash amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, PD, LGD va EAD komponentlarini real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali hisoblash darajasi rivojlangan banklar amaliyotidan hali ortda qolmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, Big Data va sun'iy intellekt elementlarini joriy etish kredit riskini kamaytirish, qaror qabul qilish sifatini oshirish hamda bank faoliyatini xalqaro standartlarga yanada moslashtirish imkonini beradi.

1 Asaka bankning rasmiy veb-sayti ma'lumotlari hamda muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.



1-rasm. NPL dinamikasi va xalqaro solishtirish (2020-2023-yillar kesimida)²

Empirik tahlillar Asaka bankda muddati o'tgan kreditlar (NPL) darajasi 2020-2023 yillar davomida 4,5-5,2 foiz oralig'ida tebranganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rivojlangan moliya bozorlarida (Yevropa Ittifoqi va AQSh) banklar uchun NPL darajasi nisbatan barqaror bo'lib, 1-3 foiz oralig'ida saqlanib kelmoqda.

Natijalar yillar kesimida quyidagicha tavsiflanadi:

2020-2023-yillar davomida Asaka bankda NPL darajasi 4,5-5,2 foiz oralig'ida shakllangan bo'lsa, rivojlangan bozorlarda ushbu ko'rsatkich 1-3 foiz doirasida barqaror bo'lgan. Shuningdek, Asaka bankning NPL darajasi MDH mamlakatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga mos keladi, biroq rivojlangan bozorlar bilan solishtirganda nisbatan yuqori hisoblanadi. Mazkur tafovut kredit portfelining makroiqtisodiy shoklar va iqtisodiy sikllarga sezgiriligini aks ettiradi hamda kredit riskini boshqarishda portfelni yanada moslashuvchan va barqaror qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Kredit portfeli tarkibi (%)

C: Korporativ	72%
I: Investitsion	40% (korp. ichida)
R: Iste'mol	18%

2-rasm. Kredit portfeli tarkibining tarmoq bo'yicha ulushi (2023-yil ma'lumoti)³

2-rasmda Asaka bankning 2023-yil uchun kredit portfeli tarkibining tarmoq bo'yicha ulushi ko'rsatilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, korporativ kreditlar portfelning asosiy qismini tashkil etadi. Iste'mol kreditlari nisbatan kichik ulushga ega bo'lsada, diversifikatsiya nuqtai nazaridan muhimdir. Shu bilan birga, investitsion loyihalarga ajratilgan kreditlar strategik ahamiyatga ega bo'lib, bankning uzoq muddatli rivojlanish rejalariga mos keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro moliya bozorida kredit riskini baholashning zamonaviy usullari va vositalari banklar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kredit skoring modellari, stress-testlar, kutilayotgan zarar (Expected Loss – EL) va kutilmagan zarar (Unexpected Loss – UL) kabi ilg'or metodlar kredit riskini aniqlash, prognozlash va minimallashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu usullar qarzдорlarning moliyaviy barqarorligini baholash, kredit portfeli sifatini monitoring qilish hamda kapitalni optimallashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt (AI) va Big Data tahlillari kredit riskini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Real vaqt rejimida kredit skoringi va kredit portfelini monitoring qilish tizimlari yordamida banklar risklarni erta aniqlash va ularning oldini olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, global moliya bozorlarining integratsiyalashuvi, transchegaraviy kapital oqimlarining kengayishi hamda yangi moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi risklarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirib, kredit riskini boshqarish tizimini yanada murakkablashtirmoqda.

Xalqaro tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, kredit riskini boshqarish tizimi doimiy ravishda evolyutsiyaga uchramoqda: risk monitoringi, stress-testlash, kapital yetariligi va kredit portfelini diversifikatsiyalash mexanizmlari takomillashib bormoqda. Shu sababli banklar nafaqat milliy, balki xalqaro standartlarga moslashgan, integratsiyalashgan va raqamlashtirilgan risk boshqaruv tizimlarini shakllantirishga majburdir.

² Asaka bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari hamda muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

³ Asaka bankining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari hamda muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.



Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Integratsiyalashgan risk boshqaruv tizimlarini rivojlantirish – banklar kredit riskini baholash va monitoring qilish jarayonida mikro va makroiqtisodiy omillarni uyg'unlashtirgan kompleks tizimlarni joriy etishi lozim.
2. Raqamli texnologiyalarni keng qo'llash – Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida real vaqt rejimida kredit skoringini amalga oshirish, PD-LGD-EAD modellarini hisoblash va stress-testlash mexanizmlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.
3. Xalqaro standartlarga moslashuvchanlikni oshirish – Basel III va boshqa xalqaro moliyaviy talablarga muvofiq kredit riskini boshqarish tizimlarini rivojlantirish, kapital yetarliligi va riskka sezgir aktivlarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.
4. Kredit portfelini diversifikatsiyalash va risk konsentratsiyasini kamaytirish – korporativ va iste'mol kreditlari o'rtasidagi muvozanatni yaxshilash hamda turli tarmoqlarga kredit yo'naltirish orqali risklarning haddan tashqari jamlanishini cheklash maqsadga muvofiq.
5. Ilmiy yondashuv va xalqaro tajribani integratsiyalash – milliy banklar kredit riskini baholashda xalqaro amaliyotni chuqur o'rganib, uni milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, zamonaviy kredit riskini baholash usullari va vositalarini, shuningdek raqamli texnologiyalarni bank amaliyotiga joriy etish kredit portfelini barqaror va xavfsiz boshqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy standartlarga moslashuvchanlikni kuchaytirish va kredit portfeli diversifikatsiyasini oshirish banklarga risklarni minimallashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Duffie D. (2023). Fragmentation risks to the dollar-dominated international financial order. Keynote speech presented at the Asian Bureau of Finance and Economic Research (ABFER).
2. Lando D. (2005). Credit risk modeling: Theory and applications. Princeton University Press.
3. Merton R. C. (2007). Applying modern risk management to equity and credit analysis. CFA Institute Conference Proceedings Quarterly, 1, 18-28.
4. Cont R. (2007). Volatility clustering in financial markets: Empirical facts and agent-based models. In T. Lux, S. Reitz, & R. Samanidou (Eds.), Long memory in economics (pp. 289-309). Springer.
5. Iskandarov M.L. (2023). The process of monitoring loans allocated by banks to industrial enterprises and ways to improve it. Gwalior Management Academy Journal, 5, 1-10.
6. Mamadiyarov Z.T., & Karimov, K. I. (2024). Tijorat banklarida kredit riski va uni boshqarish usullari. Iqtisodiyot va moliya.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>